

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05.RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ORZIQULOV BAHROM XOLMURADOVICH

**O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY-MA’NAVIY ASOSLARI**

09.00.04. – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Orziqulov Bahrom Xolmuradovich

О‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-ma’naviy asoslari

Орзикулов Бахром Холмурадович

Социально-духовные основы развития паломнического туризма в Узбекистане ...

Orzikulov Bakhrom Kholmuradovich

Socio-spiritual basis for the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of works published

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ORZIQULOV BAHROM XOLMURADOVICH

**O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY-MA’NAVIY ASOSLARI**

09.00.04. – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fal566 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ik-falsafa.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musayev Odiljon Rahmatovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tilavov O‘ktam G‘ulomovich
falsafa fanlari doktori

Azamat Muxtarov
falsafa fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «____» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.Tel.: (99871) 227-12-24 faks: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma‘muriy binosi, 2-qavat, 4-xona.Tel: (99871) 246-46-55; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «____» yanvar kuni tarqatildi.
(2023 yil «____» yanvardagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

M.G.Ruzmatova

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.d., professor

J.S.Ramatov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish davrida davom etayotgan barcha sohalardagi o'zaro integratsiya jarayonlari turizm sohasini ham yanada rivojlantirishga turtki bermoqda. Bunda turizmning boshqa sohalari qatori ziyorat turizmi ham alohida ahamiyat kasb etib, barcha xalqlarning ma'naviy va moddiy madaniyatini rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bois dunyoning barcha davlatlarida ushbu sohani rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Ziyorat turizmi dunyo xalqlarining milliy o'zligini anglashiga xizmat qilibgina qolmay, ular o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar rivojiga ham keng yo'l ochmoqda. Ushbu sohaning ma'naviy madaniyatning muhim komponenti sifatida tobora rivojlanib borayotganligi xalqlar o'rtasidagi madaniy va ma'naviy aloqalarga zamin yaratmoqda.

Dunyoda rivojlangan davlatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlarida ziyorat turizmining iqtisodiy, investitsiyaviy, ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, turizmning barcha sohasini intensiv rivojlantirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ziyorat turizmini rivojlantirishning innovatsion usullaridan foydalanish yo'nalishlaridagi muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi e'tiborga molikdir. Jumladan, Butunjahon turizm tashkiloti (WTO) Bosh Assambleyasining 13-sessiyasida (1999 yil) Santyago shahrida (Chili) qabul qilingan «Butun jahon turizm axloq kodeksi»ning «Diniy, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniy va tillar almashinuvi maqsadlariga qaratilgan sayohat turizmining rag'batlantirilishi lozim bo'lgan foydali shakllaridir» tamoyili, Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan¹ ziyorat turizmini tashkillashtirish va targ'ib qilish borasidagi muammolarni echish masalasidagi amaliy harakatlari bunga yaqqol misoldir. Bu esa ziyorat turizmining imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning keyingi rivojiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy tadqiq etish zaruratini tug'dirmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham tarixiy-madaniy ob'ektlar, muqaddas qadamjolariga e'tibor kuchayib, ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bugungi kunda O'zbekistonda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib, ularni saqlab qolish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa O'zbekiston ziyoratgohlari hamda tarixiy madaniy yodgorliklarini turizm sohalari bilan uyg'unlashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ular salohiyatidan Yanada samarali foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu o'z o'rnida mamlakatda ushbu sohaning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan ilmiy tadqiq etish vazifasini qo'ymoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham, «Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor

¹ ISESCO shafeligi ostida, WTO ning kullab-kuvatlashi hamda WTO Bosh Assambleyasining 13-sessiyasida (1999 yil) Santyago shahri (Chili) qabul qilingan «Butunjahon turizm axloq kodeksi»ning «Diniy, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniy va tillar almashinuvi maqsadlariga qaratilgan sayohat turizmining rag'batlantirilishi lozim bo'lgan foydali shakllaridir» tamoyili asosida tashkil etilgan Buxoro shahridagi «Ziyorat turizmi b'uyicha birinchi xalqaro forum». – Buxoro. 2019 yil 22 fevral. <https://www.trtavaz.com.tr>.

vazifa bo‘lishi zarur”, - deya uqdiradi².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son «Ichki va ziyorat turizmini Yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 yil 15 yanvardagi PF-52-son «Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini Yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2022 yil 18 fevraldagi PQ-135-son «Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 120-son «Muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, masjid va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida», 2021 yil 24 fevraldagi 100-son «Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlarida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi³.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshipish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Eng avvalo, O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-ma‘naviy asoslari O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Prezident Sh.M.Mirziyoevning asar, nutq va ma‘ruzalarida o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyada mavzuning o‘rganilganligiga oid manba va adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo‘lgan holda tahlil etishni lozim topdik:

Birinchi guruh - qadimgi davrlarda ziyorat qilish an‘anasi va ziyoratgohlar xususidagi qarashlar aks etgan manbalar;

Ikkinchi guruh - Rossiya imperiyasi va sovet tuzumi yillarida ziyoratgohlarning ahvoli yoritilgan adabiyotlar va manbalar;

Uchinchi guruh - mustaqillik yillarida ziyoratgohlarga e‘tibor va ziyorat turizmi masalasi aks etgan adabiyotlar;

To‘rtinchi guruh - xorijiy adabiyotlar va tadqiqotlarda masalaning aks etishi tadqiq etildi.

Ulardan birinchi guruhga oid adabiyotlar tahliliga ko‘ra, muqaddas joylarni ziyorat qilish kishilarning xulq atvori, madaniyatining yuksak saviyada bo‘lishidagi o‘rni, muqaddas ziyoratgohlar va ularni ziyorat qilish etiketi ijtimoiy-ma‘naviy, ma‘naviy-axloqiy xususiyatlari islom dinining muqaddas kitobi «Qur‘oni karim» va «Hadis»larda aks etgan bo‘lib, ular xalqimizning boy ma‘naviy qadriyati sifatida tan

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Парламентга Мурожаатномаси. – Тошкент. Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521).

³ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.02.2021 й., 06/21/6165/0104-сон; (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.02.2021 й., 09/21/100/0169-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.01.2022 й., 06/22/52/0029-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 19.02.2022 й., 07/22/135/0148-сон. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Янги Ўзбекистон. 2022 йил, 1 февраль. - № 22 (544).

olingan⁴. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar bilan bog'liq ma'lumotlar mavzuning manbaviy asosi sifatida IX-X asrlarga oid arab tarixchi va geograflarining asarlari⁵, xususan Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Abduxoliq G'ijduvoniyning «Maqomati ul-Yusuf Hamadoniy» asarlari muhim rol o'ynadi⁶. Zero, aziz-avliyolar, shayxlar va sufiylarga hurmat va saxovat ko'rsatish, ular uchun maqbaralar, jome' masjidлари, xonaqohlar qurilishida bosh-qosh bo'lish Amir Temur faoliyatining asosiy tamoyili va uning fazlatiga ham xos xususiyatdir⁷.

Ikkinchi guruhga mansub tadqiqotlar tahliliga ko'ra, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng qator olimlar oldiga O'rta Osiyo va qadimgi SHarq moddiy madaniyati yodgorliklarini o'rganish vazifasi yuklatilganligi ayon. Tadqiqotlar tahlilidan Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovet davrining dastlabki yillarida bu borada taniqli sharqshunos olimlardan P.I. Lerx, A.L. Kun, L.F. Kostenko, A.P. Xoroshxin, N.I. Veselovskiy⁸, XIX asr ikkinchi choragi va XX asr o'rtalariga kelib, milliy me'moriy yodgorliklarni tadqiq etgan mutaxassis olimlardan V.L. Vyatkin, M.E. Masson, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy kabi olimlar⁹ ning Turkiston tarixiy yodgorliklarida olib borgan tadqiqotlari o'rganilayotgan masala xususida xolis ma'lumotlar to'plashimizga asos bo'ldi. Yana qator tadqiqotchilar, jumladan L.N.Voronin va SH.E.Ratiya, M.E. V.A.Nilsen, L.I.Rempel, P.Sh.Zohidov, K.S.Kryukov, I.I.Notkin, L.Yu.Mankovskayalar O'rta Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan ziyoratgohlarni umumxalq mulki sifatida etirof etishgan¹⁰.

⁴ Куръони Карим. - Тошкент, 1992; Имом Исмоил Ал-Бухорий. Ҳадис. - Тошкент, 1990. Т. II. - Б. 321-570.

⁵ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард (Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. Камолиддин). - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011; Ибн Хордадбех. Книга «Пути и страны» / Пер. с арабск. коммент. и исслед. указ. и карты Н.Велихановой. - Баку: Элм,1986; Истахри (Абу Исхак Ибрагим ибн Мухаммад). Китаб масалик ал-мамалик // Материалы по истории киргизов и Киргизии. - М., 1973. Вып.1. - С. 5-23; Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн Хаукаля. Труды САГУ. - Тошкент, 1957. - С. 17.

⁶ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. - Тошкент: Ўқитувчи, 2008. - Б. 60-61; Абдуллолик Ғиждувоний. Мақомат ул-Юсуф Ҳамадоний. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. - Б. 9.

⁷ Темурнома. Амир Темур Кўрагон жангномаси. Сўз боши ва луғатлар бўйича нашрга тайёрловчи П.Равшанов. - Тошкент: Чўлпон, 1990. - Б. 52.

⁸Лерх П. Археологическая поездка в Туркестанский край в 1867 году / П. Лерх. - СПб.: Типография императ. акад. наук, 1870. - 39 с; На обл. загл.: Отчет о поездке в Туркестанский край в 1867; Кун А.Л Туркестанский альбом. Часть историческая. 1871-1872; Хорошихин А.П. Сборник статей касающихся Туркестанского края // Спб., 1876. - С. 66-68; Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. - Спб.,1871. - С. 16-17; Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времён до настоящего. - Спб., 1877; Веселовский Н.И. Приём в России и отпуск среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях // Журнал министерства народного просвещения, 1884; Веселовский Н.И. О надгробном памятнике Тимура (Тамерлана) в Самарканде. Известия о занятиях VII Археологического съезда в Ярославле. - Ярославль, 1887.

⁹ Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилайета // Справочная книжка Самаркандской области. - Самарканд, 1902. Вып. 7. - С. 1-63; Бартольд В.В. Отчет о поездке в Среднюю Азию в 1893-94 годах. - Спб., 1897, и «Записки Академии Наук», историко-филологический отдел, 8-я серия, Т. I, -№ 4; Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья («Памятная книжка Семиреченской области»). Т. II, Верный, 1898; Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан («Записки Восточного отдела Археологического Общества»), Т. XV, 1902; Якубовский А.Ю. Из истории археологического изучения Самарканда // ТОВЭ. Т. 2. - Ленинград, 1940. - С. 294-295.

¹⁰Воронин Л.Н. Сооружения башенного типа в архитектуре Востока и их генезис // Труды САИИ. Вып.1. - Ташкент, 1937. - С. 7-34; Ратия Ш.Е. Мечеть Биби-ханым. - М., 1950; Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и тимуроидах. - Ленинград, 1933. - С. 84, Массон М.Е. Краткая историческая справка о Среднеазиатских минаретах. - Ташкент, 1933; Массон М.Е. Соборная мечеть Тимура, известная под именем мечети Биби-ханум. 2-е изд. - Самарканд, 1929. - 16 с.; Массон. М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. Публикации Узкостариса - Ташкент: Комитет наук при СНК УзССР, 1935. - 44 с; Массон М.Е. Обсерватория Улугбека. - Ташкент, 1941. - 48 с.; Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. - М.: Академии архитектуры СССР, 1948. -

Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston ziyoratgohlari, me‘moriy obidalari va yodgorliklarini ma‘lum ma‘noda tadqiq etgan olimlardan B.N.Zasipkin, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, N.B.Nemseva, Yu.Shvab, A.Haqqulov, P.Sh.Zohidov, I.M. Azimov va boshqalarning ilmiy ishlarini keltirish mumkin¹¹. Ammo mazkur davr olimlari ilmiy izlanishlarida O‘zbekistondagi moddiy madaniy yodgorliklarga o‘sha davrning mafkuraviy tazyiqi va kommunistik g‘oyaviy munosabat ta‘siri sezilib turadi. Shuningdek, o‘sha davrda tadqiqotlar olib borgan o‘zbek olimlaridan M.S.Bulatov, N.Sodiqovalarning ishlarida¹² birmuncha noxolislik sezilib turadi.

Davlatimiz mustaqilligining qo‘lga kiritilishi o‘zbek xalqi moddiy va ma‘naviy madaniyatini o‘rganishda Yangi davrni boshlab berdi. Mazkur davrga oid adabiyotlarni tadqiqotning uchinchi guruhiga kiritish mumkin. Bu borada ishning ijtimoiy-diniy xususiyatlari G.Gulyamova, F.Abusalomova, A.Isadjanov, D.Suvonova, B.Eraliev, I.Ostonaqulov, N.Abdulaxatov, Z.Eshmirzaeva, F.Akchaev, Z.Abidova, S.Jo‘raeva, R.Abriev, N.Tuxlieva, T.Abdullaeva, B.Mirzaraximov, T.Safarova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari va monografiyalari e‘tiborga molik ekanligini alohida ta‘kidlash zarur¹³. O‘zbekistonning ko‘p asrlik moddiy madaniyati

160 с.; Булатов С.М. Искусные геометрические приёмы в зодчестве Самарканда конца XIV – начала XV в. ИЗУЗ. – Ташкент, 1959; Нильсен В.А. Монументальная архитектура Бухары XI – XII веков (К вопросу о возникновении средневековой архитектуры в Средней Азии). Дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1948. – 227 с.; Ноткин И.И. Хивинская школа зодчества конца XVIII – начала XX вв.: Дисс. ... канд.искус. наук. – Ташкент, 1962. – 297 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. – М.: Искусство, 1965. – 688 с.; Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана: История развития и теория построения / Науч. ред. Г.А. Пугаченкова. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1961. – 606 с.; Крюков К.С. Пропорции в архитектуре (Анализ памятников древнего Египта, Греции, Рима, Центральной Азии). – Ташкент: Мухаррир, 1995. – 213 с.; Захидов Ш.П. Народное зодчие Самарканда XIX – начала XX вв. (К проблеме Самаркандской архитектурной школе). Дис. ... канд. искусств. наук. – Ташкент, 1962. – 272 с.; Маньковская Л.Ю. Исследование архитектурного комплекса – мавзолея Ахмада Яссави в городе Туркестане и вопросы его реставрации.: дис. ... канд. искусств. наук. – Ташкент, 1963. – 168 с.

¹¹Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М.: Академии архитектуры. СССР, 1948. – 160 с. Пугаченкова Г.Д, Ремпель Л.И. Бухара. – Москва, 1949; Памятники архитектуры Средней Азии эпохи Навои. – Ташкент, 1947; Пугаченкова Г.Д., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент, 1958. Зодчество Центральной Азии, XV век: Ведущие тенденции и черты. – Ташкент, 1976; Шедевры Средней Азии: альбом. – Ташкент, 1986; Немцева Н.Б., Шваб Ю.З. Ансамбль Шах-и-Зинда. – Ташкент: Гафур Гулям, 1979; Немцева Н.Б., Шваб Ю.З. Шахи Зинда: альбом, - Ташкент: Гафур Гулям, 1987; Немцева Н.Б., Шваб Ю.З. Раннефеодалная усадьба и замок у городища Бабатепа на юге Узбекистана // Античные и раннесредневековые древности Южного Узбекистана. В свете новых открытий Узбекстанской искусствоведческой экспедиции. - Ташкент: Фан, 1989; Хаккулов А. Тарихий ёдгорликларни таъмирлаш. – Тошкент, 1983; Зоҳидов П.Ш. Традиции народных зодчих Узбекистана. – М., 1964; Зоҳидов П.Ш. Самаркандская школа зодчих. – Ташкент, 1965. Зоҳидов П.Ш. Ўзбек меъморчилиги усталари. – Тошкент, 1967; Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. – Тошкент, 1978; Азимов И. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1986.

¹² Булатов М.С. Обсерватория Улугбека в Самарканде // Историко-астрономические исследования. – М., 1986. Вып XVIII. – С. 199; Булатов М.С. Мавзолей Саманидов и основы теории зодчества Средней Азии IX-X вв: Дис. ... канд. архитектурных наук. – Ташкент, 1965. - 19 с.; Содикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент, 1981.

¹³ Эралиев Б. ва бошқалар. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари (Фарғона вилояти). I китоб. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 319; Эралиев Б. ва бошқалар. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари. (Андижон ва Наманган вилоятлари). II китоб. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 323; Эралиев Б. ва бошқалар. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари. (Сирдарё ва Жиззах вилоятлари). IV китоб. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 228. Эшмирзаева З. Шош ва Илоқ йўлларида. (Тошкент вилояти зиёратгоҳлари ва қадамжолари). – Тошкент, 2020. – 304 б.; Акчаев Ф. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. (Этносоциологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) диссертация. – Тошкент, 2019; Абидова З. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (Тарихий-этнологик тадқиқот) 07.00.07 — Этнография, этнология ва антропология. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертация. –Тошкент,

yodgorliklaridagi bitiklar aks etgan 13 jildli rangli foto illyustatsion albomda mamlakatning boy madaniy va tarixiy merosini aks ettiruvchi qadimiy obidalardagi epigrafik yozuvlar to'g'risida ma'lumotlar mujassamlashgan¹⁴.

Mavzuning o'rganilishi to'rtinchi guruhida xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlari tahlil etilib, bularga K.Kollins, X.Okovat, Z.Husayni, J.Svoboda, Luis Gonsales, E.Pecheritsa, E.Sharafanova, D.Surdel, K.Bishop, M.Grin, A.Filips, A.Andreeva, E.Samilovskaya kabi olimlarning ilmiy va amaliy xarakterdagi ishlarini keltirish o'rinli¹⁵. Bu borada rossiyalik olimlardan E.Pecheritsa, E.Sharafanova, A.Andreeva, E.Samilovskaya ziyorat turizmi sohasini o'rganish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borishganligi e'tiborga molikdir¹⁶.

Mavjud adabiyotlar tahlili ziyorat turizmining tadqiqot ob'ekti sifatidagi xususiyatlari va uning ijtimoiy-ma'naviy hamda ijtimoiy-falsafiy jihatlarini fan metodologiyasi nuqtai nazaridan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etish vazifasini taqozo etmoqda. Ushbu holatlar nazarda tutilib, mazkur masala dissertatsiya mavzui sifatida tanlandi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Fuqarolik jamiyati rivojlanishining siyosiy, madaniy, mafkuraviy muammolari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-ma'naviy asoslarini ilmiy-falsafiy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda ziyorat turizmining jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni, kishilar moddiy va ma'naviy turmush tarzini tashkil etishdagi ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish;

2018; Тухлиев Н., Таксаканов А., Экономика большого туризма. 2001; Жўраева С. Ўзбекистоннинг жанубий худудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида туган ўрни. – Тошкент: Ўзкитоб, 2021; Абриев Р. Ўзбекистонда тоат-ибодат билан боғлиқ архитектура ёдгорликлари хусусида // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2015. - № 4; Тухлиев Н., Абдуллаева Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Тошкент, 2006; Тухлиев Н., Абдуллаев. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. – Тошкент, 2006; Мирзарахимов Б. Ўзбекистонда туризм маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий омиллари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореф. – Андижон, 2021. – 48 б.; Т.Сафарова. Этномаданий туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-маданий омиллари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 44 б.

¹⁴ Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. – Тошкент, 2019.

¹⁵ Collins-Kreiner Noga Geographers and pilgrimages: changing concepts in pilgrimage tourism research // *Economies and Social Geografie*. 2010. Vol. 101. -№. 4. – P. 437–448; Okhovat H. A study on religious tourism industry management case study: Islamic republic of Iran // *International journal of academic research*. 2010. Vol. 2. -№. 5. September. – P. 302-306; Hosseini R.S.a b, Zainal A.a Religious tourism: Shiite shrines a powerful tool for regional development for Mashhad City, Iran // *Current Issues in Hospitality and Tourism Research and Innovations: Proceedings of the International Hospitality and Tourism Conference (IHTC)*. 2012. – P. 561-565; Svoboda J., Salgovicova J., Polakovic A. Religion and tourism in Slovakia // *European Journal of Science and Theology*. 2013. -№. 9. (6). – P. 125-132; Lois-González R.C., Santos X.M. Tourists and pilgrims on their way to Santiago. Motives, Caminos and final destinations // *Journal of Tourism and Cultural Change*. 2015. -№13 (2). – P. 149-164.

¹⁶ Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. Паломнический туризм: сущностные аспекты // *Современные проблемы науки и образования*. – 2014. - № 6.; Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. Практика развития паломнического туризма зарубежом // *Гуманитарные научные исследования*. 2016. -№ 4 [Электронный ресурс]. URL: <https://human.snauka.ru/2016/04/14554>, Андреева А.Е. Самыловская Е.А. Практика развития паломнического туризма за рубежом // *Гуманитарные научные исследования*. Доминик Сурдель. Ислам. Перевод с французского. - М., 2004. - С.70. Бишоп К., Грин М., Филлипс А. Модели национальных парков. — М.: Центр охраны дикой природы, 2000. - 216 с.

ziyosat turizmining kishilar diniy-axloqiy turmush tarzini tashkil etishning muhim omili ekanligini, ziyosat turizmining kishilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim komponenti ekanligini asoslash;

Yangi O'zbekistonda ziyosat turizmining o'rni va ahamiyatidan kelib chiqib, uni yanada rivojlantirishning eksport va investitsion salohiyati doirasida xorijiy davlatlar bilan madaniy-gumanitar aloqalar negizida ilmiy tadqiq qilish;

O'zbekistonda ziyosagohlarning muhim turistik ob'ektlar sifatidagi o'rnini ko'rsatib berish va sohadagi iqtisodiy muammolarni hal qilish nuqtai nazaridan zarur taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ektini O'zbekiston ziyosat turizmi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda ziyosat turizmini rivojlantirishning ma'naviy jihatlarini ijtimoiy-falsafiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy tahlil, analiz va sintez, sotsiologik so'rov, tizimli tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ziyosat turizmining diniy, madaniy, akseologik, gnoseologik ehtiyojlarga qaratilgan xalqning tarixiy qadamjolari vositasida vatanparvarlik, mardlik, jasurlik ruhini aks ettirishi tarbiyalashga da'vat etuvchi asosiy g'oyaviy kuch ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan;

ziyosat turizmining ijtimoiy-ma'naviy qadriyat sifatidagi evolyutsiyasi va epistemologik, germeneytik, semiotik omillari negizida arxitektura sohasining simbolik jihati ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, diniy-axloqiy hamda estetik talablar asosida shakllanishi ochib berilgan;

O'zbekistonda ziyosat turizmini dinamik va statik imkoniyatlaridan foydalanishning milliy infratuzilmasi, ziyosat turizmi rivojlantirishga to'siq bo'layotgan mavjud ijtimoiy, iqtisodiy-moliyaviy va ekologik muammolarni bartaraf etishning strukturaviy-intentsiv usullari va globallashuv sharoitida turizm uchun jozibadorlikka erishishning amaliy natijalariga bog'liq prakseologik jihatlari asoslangan;

ziyosat turizmi vositasida insonlarda kognitiv motivatsiyani shakllantirishda ekskursantlik va ekskursiya yetakchiligi integtaratsiyasi samarali tashkil etishning jozibador tabiiy-rekreatsiya va tarixiy-madaniy resurslaridan madaniyatlararo kommunikatsiyaga erishishdagi ijtimoiy funksiyasi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda ziyosat turizmining iqtisodiy, investitsiyaviy, ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, turizmning barcha sohalarini intensiv rivojlantirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ziyosat turizmini rivojlantirishning innovatsion usullaridan foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston ziyosat turizmini rivojlantirishning ustuvor vazifalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, respondentlar bilan

o'tkazilgan so'rovlar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g'oyalardan «Turizm», «O'zbekistonda ziyorat turizmi» bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar hamda metodologik yonda Shuvlarni takomillashtirishda nazariy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalardan davlat boshqaruv organlari tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalarning yo'l xaritasi hamda oqilona samarali boshqaruvini oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda, O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatida, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida, «Tarix», «Ona tili va adabiyot», «Falsafa», «Ijtimoiy fanlar», «Ijtimoiy falsafa» kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida, yoshlar faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-ma'naviy jihatlarini tahlil etish doirasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

ziyosat turizmining ijtimoiy-ma'anaviy ahamiyati va omillari negizida sohaning ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy, diniy-axloqiy va estetik ahamiyati hamda samaradorligiga doir xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021 yilda sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturining VI yo'nalishiga oid «Xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an'alarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash» 51 bandi Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy bilimlari va dunyoqarashini yuksaltirish, joylardagi tarixiy obidalar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni targ'ib qilish maqsadida «Yurtim tarixini o'rganaman» va «Yurtim bo'ylab o'n kun sayohat» loyihasini amalga oshirish mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021 yil 10 yanvardagi 02/02/26-son ma'lumotnomasi). Olingan natijalar markazning keng aholi qatlamlari o'rtasida ziyoratgohlarga hurmat, boy moddiy merosni asrab-avaylash va ular o'rtasida o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga oid dasturlarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

ziyosat turizmining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatiga ko'ra xalqimizni vatanparvarlik, mardlik, jasurlik ruhida tarbiyalashga da'vat etuvchi asosiy g'oyaviy kuch ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihat ekanligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturining IX yo'nalishiga oid «turizm sohasini Yanada rivojlantirish va turistlar oqimini oshirish» ga bag'ishlangan bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan («Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 2022 yil 18 martdagi 02/02-33-son ma'lumotnomasi). Ilmiy xulosalar partiyaning saylovoldi dasturi doirasida amalga oshirayotgan ishlari samaradorligini rivojlantirishga hissa qo'shgan;

respublikada ziyorat turizmini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan mavjud

ijtimoiy, iqtisodiy-moliyaviy va ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari va echimlari ilmiy jihatdan isbotlanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022 yildagi ish rejasining VIII yo‘nalishiga oid «Turizm ziyoratini rivojlantirish chora-tadbirlari» bandida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligining 2022 yil 12 dekabrda 04-18/7720-son ma‘lumotnomasi). Berilgan ilmiy xulosa va amaliy takliflar O‘zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligini 2022-2023 yillarga mo‘ljallangan ziyorat turizmiga oid ilmiy qo‘llanmalar, targ‘ibot va tashviqot materiallarini boyitishga va sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keldi;

respublikamiz va xorijiy turdosh davlat muassasalari, diniy tashkilotlar o‘rtasida ziyorat turizmi sohasida aloqalar o‘rnatish va rivojlantirish masalasida ishlarni tashkil qilishga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning O‘zbekistonda ziyorat turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish, ularni pasportlashtirish, ob‘ektlar bo‘yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda amaliy qo‘llanma sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2022 yil 26 dekabrda 02-06/9727-son ma‘lumotnomasi). Dissertatsiya natijalari va ilmiy xulosalar xalqimiz tarixiy merosini, urf-odatlarini va milliy tarbiya an‘analarini targ‘ib qilishda amalga oshirayotgan targ‘ibot va tashviqot jarayonlarining rivojlanishiga doir konstruktiv g‘oyalar, metodologik tavsiyalarni ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish va 1 ta xalqaro patent, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (6 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ilovalar va atamalarning izohli lug‘atidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 138 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy Yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi, vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning «**Ziyorat turizmining ijtimoiy-ma'naviy tavsifi va normativ-huquqiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida ziyorat turizmi masalasiga doir dastlabki nazariy qarashlar va uning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning bu boradagi nazariy-konseptual qarashlari, ziyorat turizmi masalasiga nisbatan turli talqinlari ilgari surilgan. Bu borada xususan E.V.Pecheritsa, E.E.Sharafanovalar ziyorat turizmining mohiyatini ko'p hollarda diniy turizm mazmuni bilan bir xil, deya hisoblasalar¹⁷, mazkur sohani ushbu yo'nalishda tadqiq etgan fransuz olimi D.Surdel islomdagi muqaddas kultlarda ibodat, ziyoratgohlar va ularga tashrif masalasida fikr bildirib o'tgan.¹⁸ I.Goldsierning fikriga ko'ra, musulmon aholisi ilgari ko'p xudolik etiqodiga rioya qilgan mamlakatlar va erlarni zabt etar ekan, bu dinlarning turli unsurlari islomga kirib kelganini va qo'shib ketganini ta'kidlaydi. M.B.Pitrovskiy esa muqaddas kult ziyorati odamlarning etiqodlari, qadimgi urf odatlari va marosimlarini birlashtirganini qayd etadi¹⁹.

A.E.Andreeva, E.A.Samilovskayalar ta'rifiga ko'ra ziyorat turizmi – bu sayyohlarning odatdagi yashash muhitidan tashqarida joylashgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohatidir. Ziyoratchilar esa – bu ichki ma'naviy tuyg'u va kamroq darajada kognitiv va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish istagi bilan kuchli turtki bo'lgan sayohatchilardir²⁰. K.Bishop, M.Grin, A.Filipslar turizmning ma'naviy-diniy, axloqiy xususiyatlari haqida Evropa va Kanada milliy parklarini tavsiflasalar²¹, V.Basilov ziyoratni islomgacha bo'lgan diniy etiqod va marosimlar islom ananalari bilan deyarli qorishib ketgan, deya D.Surdel fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi²².

Ingliz sotsiologi J.Urri turizm sohasini ijtimoiy dastur sifatida, dunyoni bilishning zamonaviy usuli sifatida talqin etgan²³. Bu borada A.Ya.Flier²⁴,

¹⁷ Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. Паломнический туризм: сущностные аспекты // Современные проблемы науки и образования. 2014. - № 6.; Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. Практика развития паломнического туризма зарубежом // Гуманитарные научные иссл., 2016. -№ 4 [Электронный ресурс]. URL: <https://human.snauka.ru/2016/04/14554>.

¹⁸ Доминик Сурдель. Ислам. Перевод с французского. - М., 2004. - С. 70.

¹⁹ Pitrovsky M.B. Islam - belief and a way of life // Islam. Shortdirectory. – М., 1983. - P. 45.

²⁰ Андреева А.Е. Самыловская Е.А. Практика развития паломнического туризма за рубежом // Гуманитарные научные исследование. [Электронный ресурс]. URL: <https://human.snauka.ru/2016/04/14554>.

²¹ Бишоп К., Грин М., Филлипп А. Модели национальных парков. - М.: Центр охраны дикой природы, 2000. - 216 с.

²² Басилов В.Н. Исламизированное шаманство народов Средней Азии и Казахстана: (Историко-этнографическое исследование): автореф. дис. ... доктора исторических наук: 07.00.07 / Ин-т этнологии и антропологии. – М., 1991. - 46 с.; Басилов В.Н. Культ святых в исламе. - М., 1970; Басилов В.Н. Избранники духов. Шаманство как явление в истории религии / В.Н. Басилов. - М.: Политиздат, 1984. - 207 с.; Басилов В.Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана / В.Н. Басилов; Рос. АН, Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. - М.: Наука, 1992. - 324 с.

²³ Urry, J. (1990). The Tourist Gaze: Leisure and Travel in Contemporary Societies. London: - P. 2.

I.T.Kasavin fikrlari ham birmuncha demokratik xarakterdadir²⁵. Ammo yuqoridagi atamalarning ayrimlarining tavsifi xususida ba'zi bahsli jihatlar ham mavjud. Ziyorat turizmi, turizm va diniy turizm sayohat va dam olishni qamrab olmaydi, barcha sayohat ham to'raligicha ziyorat bo'lmaligi mumkin. Shu boisdan keyingi paytlarda islom an'alariga ko'ra Muslim-friendly travel (musulmonlar uchun qulay turizm) atamasini qo'llash ma'qul ko'rilgan²⁶. A.Babkinning fikricha, ziyorat turizmi-turli xil konfessiyalarning o'z diniga bo'lgan hurmati va e'tiqodi nuqtai-nazaridan muqaddas qadamjolar, shaharlar, qabriston va aziz sanalgan maskanlarga ziyorat qilish²⁷ ni bildiradi, deb yozadi.

Mahalliy olimlardan G.Gulyamova, F.Abusalomova ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, A.Isadjanov, D.Suvonova, B.Eraliev, I.Ostonaqulov, N.Abdulaxatov, A.Gapparov, Z.Eshmirzaeva, Z.Abidovalar tadqiqotlari asosan huquqiy-ekologik va tarixiy-etnografik xarakterdadir. Ammo B.Eraliev hammuallifligida yozilgan kitobda ziyorat turizmi va ziyoratgohlarga oid qarashlar asosida muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni asosan uch turga bo'ladilar. Bular quyidagilar:

- 1) Xalqaro ahamiyatga molik ziyoratgohlar;
- 2) Respublika ahamiyatiga molik ziyoratgohlar;
- 3) Mahalliy ahamiyatga molik ziyoratgohlar²⁸.

Ziyorat-rekreatsiya turizmi borasida A.Gapparovning tadqiqoti alohida e'tiborga molik bo'lib, muallif ushbu rekreatsiyali faoliyat yo'nalishlariga e'tibor berib, bu – ijtimoiy-madaniy va ma'naviy yo'nalishi Ya'ni, insonning o'zini bilishida, uni o'rab turgan muhitni bilishida ma'naviy, ruhiy, madaniy dam olishga ehtiyoj, talab sezishni qayd etadi²⁹.

F.Akchaev ziyoratgohlarni uch asosiy vazifani bajarganligini uqdiradi. Bular kommunikativ vazifa; birlashtiruvchi vazifa; ruhiy-psixologik taskin beruvchi vazifa³⁰. Yana bir ta'rifda ziyorat turizmi tushunchasi ma'nosiga ko'ra u – muqaddas joylarga, mozar va qabristonlarga borib muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelishdir, deb ta'riflangan. Zero, Muhammad (S.A.V.) o'z hadisi shariflarida «Qabristonlarni ziyorat qilib turingizlar, zero u oxiratni eslatadi». Oxiratni eslash esa kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi, deyiladi³¹. Yana bir manbada

²⁴ Флиер А. Я. (1998). Массовая культура и ее социальные функции // ОНС. - №6. – С. 144-146.

²⁵ Касавани И. Т. (1997). Человек мигрирующий: Онтология, пути иместности // Вопросы философии. - №7. – с. 74.

²⁶ <https://azon.uz/content/views/ziyosat-turizmi-islomiy-turizm-diniy-tur>.

²⁷ Бабкин А. Специальные виды туризма. Учебное пособие. – Ростов на Дону: Советский спорт, 2008. – С. 11-12; Словарь тур терминов // <http://uletaemgu.ru>.

²⁸ Эралиев Б. Остонакулов И, Абдулахатов Н. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари (Андижон ва Наманган вилоятлари). – Тошкент: Турон замин зиё, 2014; Эралиев Б. Остонакулов И, Абдулахатов Н. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари (Фарғона вилояти). 1-китоб. – Тошкент: Турон Замин Зиё, 2014; Эралиев Б. Остонакулов И, Абдулахатов Н. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари. (Сирдарё ва Жиззах вилоятлари). 4-китоб. – Тошкент: Турон Замин Зиё, 2017; Абидова З. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари. Тарих фани бўйича фалсафа докт (PhD) диссертация. – Тошкент, 2018; Акчаев Ф. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. (Этносоциологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) диссертация. – Тошкент, 2019.

²⁹ Гаппаров А. Ўзбекистонда зиёрат-рекреация туризмини ривожлантириш йўллари // Бизнес-эксперт. – Тошкент. 2019. - № 6. – Б. 27-28.

³⁰ Акчаев Ф. Жиззах воҳаси қадамжолари ва зиёратгоҳлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. – Тошкент, 2020. – Б. 62.

³¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2006. – Б. 95.

keltirilishicha, ziyorat aslida arabcha soʻz boʻlib, islom dinida muqaddaslashtirilgan mozorlar va qadamjolarga borib sigʻinish demakdir. U islom bilan qoʻshilgach, diniy tus olgan³².


Dissertant tomonidan turizm sohasi mamlakat ijtimoiy-maʼnaviy hayoti, uning iqtisodiy taraqqiyoti hamda dunyo miqyosidagi obroʻsini oshirishga xizmat qiluvchi muhim tarmoqlardan biri ekanligi ochib berilgan. Raqamlarga murojaat qilinsa, bugungi kunda Oʻzbekiston ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obʼektlari mavjud boʻlib³³, xalqning boy madaniyati, koʻp asrlik tarixi, arxitektura yodgorliklari doimo xorijiy sayyohlarni oʻziga jalb etib kelgan. Oʻzbekiston oʻzining turistik imkoniyatlari boʻyicha Markaziy Osiyoda 1-oʻrinda, dunyo boʻyicha esa 10-15 oʻrinda turishi qayd etiladi³⁴.

Dissertatsiyada ziyorat turizmi va uning ijtimoiy-manaviy tavsifi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Bu borada uning mohiyati haqida turlicha talqinlar mavjudligini koʻrishimiz mumkin³⁵.

Tadqiqot ishini amaliy ahamiyatini yuksaltirish maqsadida respublikamizning turli viloyatlaridan turli yoshdagi va kasbdagi keng omma orasida on-layn soʻrovnoma oʻtkazildi.

1-diagramma

11. Зиярат туризми ҳақида эшитганмисиз?
407 ответов



Oʻtkazilgan on-layn soʻrovnoma natijalariga koʻra Ziyorat turizmi haqida 94,6% respondentlar bilishi, 4,2% respondentlar bilmasligi yoki eshitmaganliklarini, 1,2% respondentlar tasavvurga ham ega emasliklarini aytishgan.

Ziyorat aslida arabcha soʻz boʻlib, islom dinida muqaddaslashtirilgan mozorlar va qadamjolarga borib sigʻinish demakdir. U islom bilan qoʻshilgach, diniy tus olgan³⁶. Ziyoratgoh – (arab+f.t)–sigʻinadigan, ziyorat qilinadigan joydir. 1) Ziyorat qilinadigan muqaddas joy, tabbaruk qadamjo (aziz-avliyolar maqbarasi yoki yashagan, qadami tekkan joy). 2) Kishilar koʻp boradigan yigʻiladigan moʻtabar

³²Усмонов М.А. Ислам. Справочник. – Тошкент. Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1986. – Б. 85.

³³Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2020 25 январ.

³⁴Хўжамов М, Лафасов М, Мулладжанова.Р. Тарихий ўлкашунослик ва туризм. – Тошкент, 2014. – 87 б.

³⁵ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2006. – Б. 95.

³⁶Усмонов М.А. Ислам. Справочник. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси. 1986. – Б. 85.

joy³⁷. Jumladan, dastlab islom dini Makka ziyoratidan tashqari boshqa ziyoratlarni tan olmagan. Ammo keyinchalik mahalliy urf-odatlarini saqlagan holda Makka ziyorati elementlarini nusxalashtirgan mahalliy qadamjolar paydo bo'ldi va ular ziyorati ham rivojlandi. Bu borada O'zbekistondagi ziyoratgohlar ham muhim rol o'ynab, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarning xalq milliy ma'naviyatida alohida ijtimoiy muhim kategoriya sifatida manaviy va falsafiy qadriyatlar tizimiga aylandi. Ya'ni, «ziyosat turizmi», «islomiy turizm», «diniy turizm», «shar'iy turizm», «halol turizm» va hokazolar ma'nosida ham qo'llanila boshlandi va unga nisbatan Muslim-friendly travel (musulmonlar uchun qulay turizm) atamasini qo'llanila boshlandi³⁸.

Tadqiqotlarga ko'ra biz ziyoratgohlarni ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatiga ko'ra quyidagi 4 turga bo'lgan holda tasniflandi:

1. Kishilarni vatanparvalik, mardlik, jasurlik ruhida tarbiyalashga da'vat etuvchi avliyo va ulamolarning ziyoratgohlari. Ya'ni, bunday ziyoratgohlarga tashrif buyurgan ziyortachilar o'zlarida jasurlik va mardlik tuyg'ularini va ulamolarning bunday fazilatlarini mujassam etishga intiladilar. (masalan, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Pahlavon Maxmud, Mirzo Ulug'bek, Muxammad Raximxon Feruz va boshqalar³⁹);

2. Kishilarda adolat, sahovat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat tuyg'ularini ta'minlashga xizmat qiluvchi ulamolarning ziyoratgohlari. Bunday ziyoratgohlarga tashrif buyurgan insonlar o'tmish ajdodlarimizdagi sahovat, mehr muruvvat, mehnatsevarlik singari ezgu tuyg'ularni o'zlarida mujassam qilishga intiladilar (masalan, Baxovuddin Naqshband, Qaffol Shoshiy, Xoja Axrori Valiy, Xoja Muxammad Porso, Ahmad Yugnakiy va boshqalar⁴⁰);

3. Kishilarni diniy e'tiqodga, diniy axloq va sadoqat, vafodorlik ma'naviyat va ma'rifatga chaqiruvchi avliyolarning ziyoratgohlari (Imom al-Buxoriy, Imom al-Moturidiy, Shayx Hovandi Toxur, Ahmad Yassaviy, Imom at-Termiziy, Hakim at-Termiziy, Abul Muin an-Nasafiy, Hazrati Imom (Xasti Imom), Zangi Ota, Maxdumi A'zam va boshqalar⁴¹);

4. Kishilarni ilm-ma'rifatga chaqiruvchi avliyolarning ziyoratgohlari. Ya'ni, bunday fazilatli avliyolarning avliyolik darajasiga etishida ilmga intilish, tinimsiz mehnat yotganligi bois ziyoratchilarda ilmli bo'lishga intilish, mehnatga bo'lgan munosabat, ilm-ma'rifatga nisbatan hurmat-ehtirom shakllanadi. (Abu Ali Ibn Sino,

³⁷Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: ЎзМЭ. 2008, - Б. 148.

³⁸ <https://azon.uz/content/views/ziyosat-turizmi-islomiy-turizm-diniy-tur>.

³⁹ Маънавият юлдузлари. –Тошкент, 2001.

⁴⁰ Маънавият юлдузлари. –Тошкент, 2001.

⁴¹ Буюк юрт алломалари. (Тузувчи ва нашрга тайёрловчи т.ф.д У.Уватов). –Тошкент, 2018; Жўраева С. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. – Тошкент: Ўз китоб, 2021; Абриев Р. Ўзбекистонда тоат-ибодат билан боғлиқ архитектура ёдгорликлари хусусида // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2015; Абидова З. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари. Тарих фани бўйича фалсафа докт (PhD) диссертация. – Тошкент, 2018; Акчаев Ф. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. (Этносоциологик тадқиқот). Тарих фани бўйича фалсафа докт (PhD) диссертация. –Тошкент, 2019.

Burxoniddin al-Margʻinoniy, Abu Bakr al-Xorazmiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Fargʻoniy va boshqalar)⁴².

Dissertant tomonidan Oʻzbekistonda turizm sohasini Yanada rivojlantrish, respublikaning bu boradagi jozibadorligini Yanada oshirishga yoʻnaltirilgan qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar, farmonlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning oʻrni tahlil etilgan. Buning yaqqol isboti sifatida «Madaniy meros obʻektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining qonuni muhim ahamiyatga ega boʻldi⁴³. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oʻzbekistonda «2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obʻektlarini muhofaza qilish, asrash, targʻib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi⁴⁴, «Muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, masjid va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish toʻgʻrisida»gi⁴⁵ qarorlari muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Moddiy, madaniy va arxeologiya meros obʻektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish toʻgʻrisida»gi farmoyishlari va ushbu sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlar⁴⁶ muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Dissertatsiyada Yangi Oʻzbekistonda sohaning muhim normativ-huquqiy asosi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-4947-sonli Farmon va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmonda ham turizm sohasini rivojlantirishga alohida urgʻu berilganligini taʼkidlashimiz mumkin⁴⁷. Bu borada Prezidentimizning 2017 yil 12 iyuldagi «Turizm sohasini rivojlantirishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining masʼuliyatini Yanada oshirish chora tadbirlari toʻgʻrisida»gi hamda 2017 yil 16 avgustdagi «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarorlarining qabul qilinishi esa, davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan izchil siyosatning mantiqiy davomi boʻldi.

⁴² Абидова З. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари. Тарих фани бўйича фалсафа докт диссертация. Тошкент, 2018., Акчаев Ф. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. (Этносоциологик тадқиқот). Тарих фани бўйича фалсафа докт (PhD) диссертация. – Тошкент, 2019.

⁴³ «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 2001 й, -№9-10-сон, 180-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2004, 25-сон.

⁴⁴ «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 7 октябрдаги 222-сонли» 2010-2020 йилларда номоддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш Давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарори // www.lex.uz.

⁴⁵ «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 15 февралдаги 120-сонли «Муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар, масжидлар ва қабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил этиш тўғрисида»ги қарори // www.lex.uz.

⁴⁶ «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 16 январдаги Ф-5181-сонли «Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида»ги фармойиши // www.lex.uz.

⁴⁷ Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги Ўзбекистон Президентининг Фармони // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. -№6; Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Янги Ўзбекистон. 2022 йил, 1 февраль. -№ 22 (544).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil fevraldagi «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi alohida qayd etishimiz mumkin⁴⁸. Albatta, ziyorat turizmi rivojlanishi uchun o‘sha davlatda diniy-ma’rifiy sohalar ham rivojlanmog‘i lozim. Bu borada davlatimiz rahbarining 2018 yil 16 apreldagi «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan, «Vaqf» xayriya jamoat fondi tashkil etildi⁴⁹. Prezidentimizning 2020 yil dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda «O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori, 2021 yil 24 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori» e’lon qilinib, unga ko‘ra ziyorat turizmini rivojlantirishni muvofiqlashtirish respublika kengashi tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyuldagi «Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF 338 qarorida «Tabarruk ziyorat turizm konsepsiyasi» tasdiqlandi⁵⁰.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Ziyoratgohlar va ziyorat turizmining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati va uning hududiy xususiyatlari**» deb nomlangan bo‘lib, unda jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayotining muhim omili sifatida milliy madaniy merosni chuqur o‘rganish, muhofaza qilish, ulardan unumli foydalanishda ziyoratgohlar va qadamjolar bilan bog‘liq an‘analarning o‘rni, aziz avliyolarning kishilarda mehr oqibat, hallollik, adolat singari insoniy qadriyatlarni ulug‘lashdagi o‘rni tadqiq etilgan. Tadqiqotlar ziyoratgohlar bilan bog‘liq an‘analarni inson ma’naviy hayotiga ta’sirini alohida qadriyat sifatida e’tirof etish muhimligini tasdiqladi. Zero, ziyorat qilish an‘anasi hatto islomdan oldingi – zardushtiylik davrida ham bo‘lganligini ko‘rsatdi⁵¹.

Islom dini ta’limotiga ko‘ra aziz-avliyo va allomalarning maqbaralari va qabrlarini ziyorat qilish mustahab, savobli amallardan sanalib, ziyorat orqali insonlar o‘tmishdan ibrat olib, ularning qalblari yumshab, dunyoning o‘tkinchi ekanini anglab, savobli va hayrli ishlar qilishga undaydi. Zero, islom dini ta’sirida ziyoratgohlar haqidagi qarashlarning ilohiy jihatlari, ularning ajdodlardan avlodlarga o‘tib, odamlarning ruhiy-ma’naviy tasavvurini boyishiga xizmat qilayotganligi muhimdir. Aslida ziyorat qilishdan maqsad ham Shudir. Ziyorat asosida bugungi avlodlarda Allohning vasliga etgan aziz avliyolarga nisbatan hurmat va ishonch shakllanadi, ziyoratchilarning asosiy maqsadi muqaddas joylarga tashrif buyurish orqali

⁴⁸ «Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шaroitлар яратиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2018 февраль; «Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2018 февраль.

⁴⁹Обломуродов Н., Ибрагимов Э ва бошқалар. Диншунослик. Дарслик. – Тошкент, 2018.

⁵⁰Қонунчилик маълумотлар миллий базаси, 30.07.2022.й., 07/22/338/06-сон.


⁵¹Басилова В.Н. Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. –М.: Наука, 1986. – С. 3.

o‘zlarining ko‘ngil xotirjamligi va ijtimoiy-ma’naviy hamda ruhiy quvvat olishidan iboratdir. Shu o‘rinda ziyoratgohlar ma’naviy taskin beruvchi kategoriya sifatida qaralsada, ularda mehnatsevarlik, halollik mezonlari ham yotganligini qayd etish mumkin.

Masalan, bunday qarashlar Bahouddin Naqshbandiyning «Dil ba yoru, dast ba kor» ezgu g‘oyasiga hamohang holda muqaddas maqbara va mozorlar bilan bog‘liq xalq qarashlarida mehnatsevarlik, ma’naviy va moddiy ne‘mat mushtarakligi, poklik bosh mezon bo‘lib, birovlar haqiga ko‘z olaytirmaslik, fohishabozlik, ichkilikbozlik kabi qabih ishlar qattiq qoralangan. Ijtimoiy-ma’naviy tahlillarga ko‘ra tadqiqotlar jarayonida ziyorat turizmiga kelgan ziyoratchilar tomonidan qabrlarni xuddi Ka‘bani tavof qilgandek etti marta tavof qilib aylanish, qabr toshlarini o‘pib, yuz-ko‘zlariga surtish, u erdagi daraxtlarga turli matolar bog‘lash, aziz-avliyolar ruhidan najot so‘rash kabi ayrim xurofiy odatlarga ham qo‘l urayotganliklariga guvoh bo‘lish mumkin. Zero, islom dinida bunday amallar keskin qoralangan va ular odamlarni e‘tiqoddan adashtirib, shirk amal, deb hisoblangan. Chunki, ziyoratgohlarning ham ma‘lum tartib - qoidalari bo‘lib, ziyoratgohga kirayotgan ziyoratchi u erga o‘ng oyoq bilan salom berib kirishiva o‘tganlar haqiga bag‘ishlab duoi fotihalar qilishi, ziyoratdan so‘ng orqasiga o‘girilmasdan chiqishi singari axloqiy odatlar aholini qadimdan muqaddas joylarni ziyorat qilishda ma‘lum ma’naviy-axloqiy me‘yorlarga amal qilishlariga turtki bo‘lgan.

2-diagramma

16. Зиёрат қилиш одоби шакллантиришда қайси ижтимоий институт вакилларининг таъсири кучлироқ деб ҳисоблайсиз? (жавоблар ичидан учтасини белгилашингиз мумкин)
407 ответов



Ushbu diagrammada “Ziyorat odobini shakllantirishda qaysi ijtimoiy institut vakillarining ta’siri kuchliroq” haqidagi savolga respondentlarning javobini ko‘rishimiz mumkin.

Ziyoratgohlarning kishilar ma’naviy hayoti va jamiyat hayotidagi ijtimoiy o‘rni hamda mavqei Shundaki, ziyoratgohlarni obod qilish, u erda ortiqcha amallarni bajarmaslik, ziyortagohlarning magik hususiyatlaridan cho‘chish, yolg‘on gapirmaslik kabi axloqiy-diniy qoidalar shakllanishiga turtki bergan. Ammo tadqiqotlar ziyoratgohlarda quyidagi salbiy holatlar tez-tez ko‘zga tashlanayotganligini tasdiqladi:

1) Ziyoratgohlarda turli marosimlarni tashkil etish va ziyorat qilish jarayonida atrof-muhitni ifloslantirish;

2) Ziyoratgohda oziq-ovqatlarni isrof qilish, ba'zan marosimlarni kim o'zarga tashkil qilish;

3) Ehson va hadyalar sarf-xarajatlaridagi muammolar;

4) Taqiqlangan irim-sirimlarni (daraxtlarga mato bo'lagini bog'lash, chiroq yoqish, buloq suvlariga narsa-buyumlar tashlash va qabr tuprog'idan olib ketish) bajarish,

5) Ziyoratgoh hududidagi o'simliklar va daraxtlarga ziyon etkazish kabilardir⁵².

Ziyorat qilish odatlariga ko'ra va ziyorat odoblariga oid manbalarda keltirilishicha, mozorlarda chiroq yoki sham yoqish bid'at hisoblanishi qayd etilgan⁵³.

Ziyoratgohlar aslida ma'lum diniy amallar bajariladigan gavjum joylar hisoblanib, O'zbekistonda bunday katta-kichik muqaddas masakanlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Respublikada din bilan bog'liq mingdan ortiq maskanlar majud. R.Abrievning yozishicha, 10 mingdan ortiq ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar bor. Mazkur ob'ektlarning 7570 tasi davlat muhofazasiga olingan, 2330 tasi qadimgi arxitektura yodgorliklari, 3945 tasi arxeologik, 1138 tasi haykaltaroshlik, monumental san'at asarlari, 157 ta diqqatga sazovor joylar, 700 mingdan ortiq ko'chma madaniy ob'ektlari mavjud⁵⁴. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Shohi Zinda, Hazrati Imom, Zangi Ota, Kaffol Shoshiy, Shayx Hovandi Toxur, Baxovuddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoni, Pahlavon Mahmud, Yusuf Hamadoni, Sulton Uvays va SHayx Muxtor Valiy, Nur ota ziyoratgohlariga minglab vatandoshlarimiz va xorijlik sayyohlar hamda mehmonlar tashrif buyuradilar. Muqaddas joylarning ko'pchiligi islom dinini keng targ'ib qilgan, Shu zaminda yashagan avliyolar bilan bog'liq bo'lib, hatto ayrimlarida qadimiy diniy e'tiqod izlari bilan bog'liq rasm-rusumlar ham amalga oshiriladi.

Diniy-axloqiy odatlarga ko'ra islom dini amallariga muvofiq, haftaning yakshanba, dushanba, payshanba va juma kunlarini ziyorat uchun qulay kunlar, deb hisoblanadi. Seshanba, chorshanba va shanba kunlari baxtsiz kunlarsifatida e'tirof etilgan⁵⁵. Diniy qoidalarga ko'ra, ta'kidlanishicha, chorshanba kuni Allohning irodasi bilan mavjud o'simlik dunyosi va suvlarga jon ato qilingan. Juma kuni yulduzlar yaratilgan va Shu kuni Muhammad Payg'ambar tug'ilgan, muqaddas Qur'oni Karim nozil qilingan. Shu bilan birga, ayrim qarashlarga muvofiq chorshanba kuni o'simlik va suvlarga jon ato qilingan ekan. Inson tanasiga kirib olgan yomon ruhlarni chorshanba va payshanba kunlari quvish foyda keltiradi⁵⁶, - degan qoida ham mavjud. Ziyoratgohlarga yilning ma'lum vaqtida chiqish an'anasi bilan birga, yilning ma'lum vaqtlarida bormaslik an'anasi ham mavjud. Bu borada qamariy yil hisobi bo'yicha

⁵² Маълумотлар муаллиф томонидан Фарғона, Бухоро, Сурхондарё вилоятларидаги зиёратгоҳларга ташрифлар жараёнида тўпланди.

⁵³ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007; Аширов А. Ўзбекистоннинг муқаддас зиёратгоҳлари ва диний бағрикенглик масалалари // Ўзбекистон бағрикенг диёр. – Тошкент, 2007. – Б. 61-65.

⁵⁴ Абриев Р. Ўзбекистонда тоат-ибодат билан боғлиқ архитектура ёдгорликлари хусусида // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2015. -№ 4.


⁵⁵ Абидова З. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (тарихий-этнологик тадқиқот): тар. фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 123.

⁵⁶ Саримсоков Б. Ўзбек маросими фольклори. – Тошкент, 2014. – Б. 154.

«Safar oyi»da ziyorat qilmaslik haqidagi qarashlar xalq orasida saqlanib qolgan, Ya'ni bu boradaturli taqiq (tabu)lar ham mavjud. Jumladan, «safar oyi, xatar oyi», «safar oyida safarga chiqib bo'lmaydi», «safar oyi xosiyatsiz oy», degan qarashlarga ko'ra ziyoratga borish va boshqa marosimlar (to'y va boshqalar) ta'qiqlangan⁵⁷.

3-diagramma

2. Сизнинг фикрингизча, зиёратгоҳларни ижтимоий – маънавий аҳамиятига кўра таъсири қайси жиҳатларда кўпроқ ифодаланади? (жавоблар ичидан тўрттасини белгилашингиз мумкин)
407 ответов



“Ziyoratgohlarning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatiga ko’ra ta’siri”. Yuqoridagi diagrammaga ko’ra respondentlar javoblarini bildirishdi.

Tadqiqotlarga ko’ra, O‘zbekistonda ziyoratchilarning ziyoratgohlarga ommaviy ravishda tashrifi yilning asosan aprel-may va avgust-sentyabr oylari ommaviy ziyorat mavsumi davri, deb hisoblanishini tasdiqladi. Albatta ziyoratga kelgan ziyoratchilar bu erda turli diniy rasm-rusumlar, marosimlarga rioya qilishib, turli marosimlar o‘tkazadilar. Bular «Qurbonlik», «Bibi mushkulkushod», «Bibi seshanba», «Xudoyi» kabilardir. Bugungi kunda «Oilaviy sayohat ta’tili» tizimi ham joriy qilingan bo‘lib, unga ko‘ra bir qancha bayram va dam olish kunlarida ichki ziyorat turizmini amalga oshiruvchi fuqarolarga imtiyozlar va chegirmalar joriy qilingan. Bunday ziyoratlar O‘zbekistonda Ramazon hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) diniy bayramlarini nishonlash davrida Yanada jonlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining viza tartibini soddalashtirishga oid Farmonidan kelib chiqib «Vatandosh», «Talaba», «Akademik», «Ziyoratchi» va «Tibbiyot» viza turlari joriy etilgan⁵⁸.

Tadqiqotchi tomonidan ziyorat turizmining mavjud holatini respublika mintaqalari misolida tahlil etilib, har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi etnohududiy xususiyatlar asosida tahlil qilingan:

1) Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi ziyoratgohlarning etnohududiy xususiyatlari;

⁵⁷ Саримсоқов Б. Ўзбек маросими фольклори. – Тошкент, 2014. – Б. 154.

⁵⁸ Мажидов Х. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар марказиетакчи илмий ходими. Туризм соҳасини ривожлантириш бўйича 2019 йилда амалга оширилган ишлар. 21.01.2020. <https://review.uz/oz/post/turizm-soasini-rivozlantiris-bujica-2019-jilda-amalga-osirilgan-islar>.

2) Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi ziyoratgohlarning etnohududiy xususiyatlari;

3) Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari ziyoratgohlarining etnohududiy xususiyatlari;

4) Jizzax va Sirdaryo, Toshkent viloyatlari ziyoratgohlarning etnohududiy xususiyatlari;

5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlaridagi ziyoratgohlarning etnohududiy xususiyatlari;

6) Toshkent shahri ziyoratgohlarining etnohududiy xususiyatlari.

Tadqiqotlarga ko‘ra, hududlardagi ziyoratgohlarning holati tahlilidan ayon bo‘ladiki, ziyorat turizmining turli mintaqalarda bir-biridan farqlanishining asosiy sabablari, birinchidan ushbu mintaqalarning tabiiy-geografik sharoiti asosiy omil hisoblanadi. Ikkinchidan, ushbu mintaqalarda islom dinining qay darajada rivojlanganligi yoki bu erdan etishib chiqqan diniy ulamolarning avliyolik darajalarining qay darajada ekanligidir. Masalan, Farg‘ona vodiysi tabiiy-geografik omilga ko‘ra hududning tabiiy sharoiti qulay, aksariyat ziyoratgohlar asosan tekislik hududlarida va tarixan o‘troq aholi manzillarida joylashgan. Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatidagi ziyoratgohlar esa asosan tog‘ yonbag‘rilari, lalmi vohalar hududlarida joylashgan bo‘lsa, Xorazm, Qoraqalpog‘istondagi ziyoratgohlarning asosiy qismi cho‘lga yaqin joylarda joylashgan. Bunday omillar o‘z navbatida azaldan diniy ulamo va avliyolarning ushbu mintaqalarga qo‘nim topishlariga ta’sir ko‘rsatgan.

O‘z o‘rnida har bir mintaqadagi ziyoratgohlarda o‘sha hududlarga xos ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, tadqiqotda O‘zbekistonda ziyorat turizmining muammolarini quyidagi omillar asosida tasnifladik:

1. Ziyoratgohlardagi ijtimoiy-mayishiy muammolar;
2. Ziyoratgohlardagi iqtisodiy-moliyaviy muammolar;
3. Ziyoratgohlardagi ekologik muammolar.

Ziyoratgohlardagi ijtimoiy-mayishiy muammolar qatorida transport infratuzilmasini yaxshilash, transport aloqalarini tizimli yo‘lga qo‘yish, ziyorat odoblariga qat’iy amal qilish, mehmonxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish shaxobchalarini tashkil qilish kabilar; Ziyoratgohlardagi iqtisodiy-moliyaviy muammolar bu, mablag‘larning manzilli va maqsadli sarflanishi, ziyoratgohlar hududidagi arxitektura obektlarini asrab-avaylash, ularni rekonstruksiya qilish, sohada tadbirkorlar uchun shart sharoitlar yaratish, ularga soliq imtiyozlari berish va boshqalar; Ziyoratgohlardagi ekologik muammolar esa atrof-muhit, dov-daraxtlar, xayvonot olami, umuman tabiat bilan bog‘liq ob’ektlarga ziyon etkazish, mavjud florani saqlab qolish choralarini ko‘rish kabilar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari va xalqaro e’tirofi**» deb nomlangan. Tadqiqotlarga asosan O‘zbekistonda ziyorat turizmini jadal rivojlantirish, uning ijtimoiy-ma’naviy hamda iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim. Bu borada 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida respublikamizning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, Yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shunga muvofiq ziyoratgohlarning yangilangan, zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish kabi muhim masalalarga alohida ahamiyat berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanish yuzasidan O'zbekistonda turizm salohiyatini yuqori darajaga olib chiqish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.⁵⁹

O'zbekistonda turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratildi. Ayniqsa 2021-2025 yillarda – mamlakat iqtisodiyotida turizm sanoati ulushini oshirish, Shuningdek, mamlakat yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 % gacha etkazish (2017 yil yakunlari bo'yicha – 2,3 %) hamda 9 mln.dan ortiq, jumladan uzoq xorijdan 2 mln. nafar turistni jalb etish, 2025 yilda turizm eksporti o'sishini 951 mln. dan 2,2 mlrd. AQSH dollarigacha etkazish rejalashtirilgan⁶⁰.

Ziyorat turizmi segmentiga investitsiya kiritish borasida 2018 yil noyabr oyida o'tkazilgan birinchi xalqaro investitsiya forumi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Forumda 36 davlatdan 200 yaqin vakillar ishtirok etib, 123 ta jami 401,1 million dollarlik keliShuv va memorandumlar imzolandi. Ayniqsa, Turkiya, Xitoy, Singapur va Germaniya davlatlari investorlari faol ishtirok etdi. Jumladan, Fransiyaning Konsorsium kompaniyasi bilan tuzilgan investitsion shartnomaga ko'ra 750 ming AQSH dollari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani turistik hududini rivojlantirishga yo'naltirilgan⁶¹.

Chunki, ziyorat turizmi iqtisodiy imkoniyatlardan tashqari aholini ish bilan ta'minlash, keng miqyosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yuqori samarali xizmatlar yaratishni tashkil qilish va uni boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, joylashtirish, ovqatlantirish, transport va Shu kabi turizm faoliyati bilan Shug'ullanuvchi tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va yaxshilash, xizmat ko'rsatuvchilar va turistlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish kabi bir qator masalalarni hal qilish zarur.

Ziyorat turizmiga molik mulklarni moliyalashtirish aslida boshqa tarmoqlaridagi sayyohlik xizmatlari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash jarayoniga mutlaqo ta'sir ko'rsatmaydi. Bu borada kelajakda xorijlik sarmoyadorlarni keng jalb etish, aniq hisob-kitob asosida faoliyat yuritish, turistlar oqimini qishin-yozin ta'minlash zarur. Ayniqsa yoz, kuz va bahor mavsumida (aprel-oktyabr oylari) joriy etilgan narxlar yilning boshqa davriga nisbatan keskin farqlanishi tabiiy. Shu boisdan ushbu mavsumlarda savdo-sotiq yoki xizmat sohasida iloji boricha past baholarni joriy etish har jihatdan foydalidir. Bu erkin raqobat yuritish, ko'zlangan moliyaviy maqsadlarga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotlarimizga ko'ra hozirgi kunda ziyorat turizmi bozorida narx-navo tizimining quyidagi yo'nalishlari mavjud:

⁵⁹Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги Фармони. // Янги Ўзбекистон. 2022 йил, 1 февраль, -№ 22 (544).

⁶⁰ Райимова М. Туризм инфратузилмасини ривожлантириш истикболлари // Бизнес-эксперт. № 6 (138) 2019.

⁶¹ Жумаева Ш. Инвестиция муҳитини кучайтириш-Ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантиришнинг асосий омили сифатида // UzBridge электрон журнали. -№ 1. 2020 йил февраль. – Б. 34.

- ziyoratgohlarga ommaviy-guruhiy safarlar (inklyuziv turlar)ning baho qiymatini belgilash;
- ziyoratgohlarda mavsumiy va nomavsumiy baholarni diferensiyalash;
- ziyoratga qisqa muddatga kelgan ishbilarmonlar uchun narx-navoni diferensiyasini amalga oshirish;
- ziyoratgohlardagi xizmatlar sifati bo'yicha baho diferensiyasini joriy etish;
- tanlangan xizmat majmui bo'yicha narx-navo diferensiyasini ko'zda tutish.

Ziyorat turizmining iqtisodiy-moliyaviy asoslarini yanada kuchaytirish, ularning investitsiyaviy jozibadorligini ta'minlash borasida biz disseratsiyada quyidagi taklif va tavsiyalarni taqdim etdik:

- mavjud ziyoratgohlar hududlaridagi bog'lar, dam olish maskanlarini tadbirkorlarga ma'lum imtiyozlar asosida berish hamda daromad manbalarining bir qismini o'sha ziyoratgohlar uchun yo'naltirish;

- ziyoratchilar uchun ovqatlanish joylarida zamonaviy gastronomik turizm ob'ektlarini tashkil etish hamda mazkur joylarda «halol ovqatlarni tayyorlash» tizimini keng joriy etish.

Davlatlar bilan ziyorat turizmi yo'nalishida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish muhim rol o'ynaydi. Albatta, bu borada O'zbekiston-Malayziya hamkorligi doirasida «ziyosat turizmi», «muslim friendly» va «halal tourism» standartlarini rivojlantirish muhim o'rin tutmoqda. Shuningdek, O'zbekiston-Pokiston, O'zbekiston-Turkiya, O'zbekiston-Saudiya Arabistoni, O'zbekiston-BAA hamkorligi ham salmoqlidir. Bu borada O'zbekiston-Turkiya hamkorligi negizida 2019-2020 yil yakunlariga ko'ra yurtimizga kelgan turk sayyohlarining umumiy soni 85 ming kishiga yaqinlashdi. Ziyorat turizmi borasida O'zbekiston-Rossiya hamkorligi doirasida 2021 yilning 14 avgust kuni Rossiya Federatsiyasining Sverdlovsk viloyati turizmni rivojlantirish markazi o'rtasida axborot va tajriba almashinuvi yo'lga qo'yildi va o'zaro memorandum imzolangan⁶². Bularning barchasi mamlakatning ziyorat turizmi borasidagi jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda⁶³.

Xususan, Malayziya va Indoneziyalik ziyoratchilar Turkiya orqali umraga qatnashdan ko'ra Samarqanddagi Imom al-Buxoriy, Imom al-Moturidiy ziyoratgohlarini ziyorat qilib, Makkaga borishni afzal ko'rmoqdalar. Bu borada ular O'zbekistonda bir hafta vaqtlarini o'tkazib, fevral-mart oylaridan boshlab to'g'ridan-to'g'ri Jakarta-Samarqand-Jidda aviareysini kengaytirish bo'yicha «Uzbekistan airways» AJ va Turizm qo'mitasi bilan hamkorlikda ishlar olib bormoqdalar⁶⁴.

Din ishlari bo'yicha qo'mita tarkibida Ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlash bo'limi tashkil etilib, Malayziya, Turkiya, Indoneziya kabi davlatlar uchun vizasiz rejim joriy etildi. Prezidentning 2019 yil 5 yanvardagi Qarori bilan 2019 yilning 1 fevralidan qo'shimcha 45 davlatga vizasiz rejim joriy qilindi va 2019 yil 15 martdan elektron viza taqdim etiladigan mamlakatlar sonini 76 ta davlatga etkazildi. Bu esa

⁶²<https://t.me/namangantourism/108>.

⁶³ Ўзбекистон 24 канали маълумотлари. 2020 йил 21 январь.

⁶⁴ Мўминов А. Ўзбекистонда экологик туризмнинг ривожланиш жараёнлари (1991-2020) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. – Тошкент, 2021. – Б. 124.

yurtimizga keluvchi sayyohlarning keskin ortishiga ta'sir ko'rsatadi⁶⁵. Ziyorat turizmi masalasida Indoneziya, Malayziya, Pokiston va Turkiyaning tegishli vazirlik hamda idoralari bilan jadal ishlar olib borilmoqda. Keyingi ikki yil ichida Indoneziya va Malayziyadan ilk ziyoratchi guruhlarining Buxoro, Samarqand va Toshkentdagi tarixiy qadamjolarga tashriflari tashkil etildi. Ushbu ziyoratchilar «Umra+» dasturiga binoan yurtimizda 3-4 kunlik ziyoratdan so'ng Saudiya Arabistoniga jo'nab ketishi yo'lga qo'yildi. Albatta, bu ishlar Saudiya Arabistoni umra dasturi tiklagandan keyin davom ettirildi⁶⁶. 2021 yil 15 mart holatiga ko'ra, fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 90 tani tashkil qilgan⁶⁷.

O'zbekistonda ziyorat turizmi borasidagi islohotlarni yoritish uchun Evropa va Osiyoning ko'plab OAV vakillari yurtimizga tashrif buyurmoqdalar. Ular orasida «Euro News» (Fransiya) va «Al Jazeera» (Qatar) telekanallari, «Al-Ahram al-Iqtisadi» (Misr) jurnali, «Diplomatic News» (Pokiston), «Kommersant» (Rossiya), «Al-Vajxat» (Ummon) va «Al Hayat» (Saudiya Arabistoni) gazetalari vakillari borligi e'tiborga molikdir⁶⁸. Statistika e'tibor berilsa, 2018 yil mobaynida O'zbekistondagi ziyoratgohlarga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning asosiy qismini Fransiya (24%), Rossiya (18%), Germaniya (10%), Xitoy (12%), Turkiya (11%), va MDH (14%) mamlakatlari fuqarolari tashkil etgan⁶⁹.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Tadqiqotlar ziyorat turizmi har bir xalqning milliy ma'naviy va moddiy qadriyatlarini o'zida mujassam etadigan muqaddas joylar sifatida xalqning milliy mentaliteti, hududlarning geografik o'rni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, aholi ma'naviy turmush tarzini aks ettirishning muhim mezoni ekanligini tasdiqladi. Ushbu soha rivojlangan jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etuvchi muhim tarmoq hisoblanib, uning faoliyati dunyo xalqlarining milliy o'zligini anglashiga xizmat qilishi bilan birga, nafaqat ichki turizmni, balki tashqi turizmni Yanada rivojlantirishga turtki berishiga guvoh bo'ldik.

2. Ziyorat turizmining ijtimoiy-ma'naviy hamda huquqiy asoslarining tahlili Shuni ko'rsatdiki, sohani qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar kelajakda sohaning normativ- huquqiy asoslarini Yanada rivojlantirishni taqoza etishini tasdiqladi. Ziyorat turizmining rivojlanishini ta'minlaydigan va kafolatlaydigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar va ularning rivojlanishiga ko'mak beruvchi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning qabul

⁶⁵Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишланган Илмий оммабоп қўлланма. – Тошкент, 2019. – Б. 195-196.

⁶⁶ Ахмедов А. Зиёрат туризми: имкониятлар кўп, ташаббуслар етарли, навбат натижага // Янги Ўзбекистон. - № 31. 2021. 12 февраль.

⁶⁷<https://yuz.uz/news/ozbekistonda-viza-rejimining-soddalashtirilishi-turizm-sohasi-oldida-misli-korilmagan-imkoniyatlarni-ochdi>.

⁶⁸ Халқ сўзи. Ўзбекистон зиёрат туризмнинг марказларидан бири сифатида эътироф этилди. № 38 (7268). Тошкент, 2019 йил 23 февраль.

⁶⁹ Акчаев Ф. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. (Этносоциологик тадқиқот). Тарих фани бўйича фалсафа докт (PhD) диссертация. – Тошкент, 2019. – Б. 123.

qilinayotganligi, Yangi O'zbekistonda ushbu soha taraqqiyotning Yangi bosqichiga ko'tarilganligini tasdiqladi.

3. Ziyoratgohlarning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlaridan kelib chiqib, muqaddas ziyoratgohlar odamlarni xarom-xarish yo'llardan uzoq yurishga insofli-diyonatli bo'lishga, o'zlaridan faqat yaxshilik qoldirish singari hayrli ishlarga undab kelayotganligini tasdiqladi. Ziyoratchilarda odob-axloq ko'nikmalarini, o'zaro do'stona munosabatlar, o'zaro mehr-oqibat, hallollik, diyonat singari insoniy fazilatlarini ulug'lashga undab kelganligini, ushbu maskanlarda halq ma'naviyati va ruhiyati ifodalanganligini, xalq orasida ajdodlardan avlodlarga meros tarzda o'tib, xalq og'zaki ijodida saqlanib qolganligini ko'rsatdi.

4. Ziyoratgohlarda bajarilayotgan urf-odatlar, marosimlarning tub ildizlari o'tmishning uzoq davrlariga borib taqalishi ziyoratgohlar olimlar uchun muhim tadqiqot ob'ekti vazifasini o'tashini tasdiqladi. CHunki, ziyoratgohlar kishilarni ezgulik, mehr-muruvvatga chorlovchi ilohiy manzil sifatida muqaddas moddiy-ma'naviy manba vazifasini o'tab kelayotganligiga guvoh bo'ldik.

5. Ziyoratgohlarning iqtisodiy imkoniyatlari va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va tadbirkorlikdagi ulushining ortishi respublika taraqqiyotida muhim o'rin tutishini tasdiqladi. Ya'ni, ziyorat turizmi biznes sub'ektlarining shakllanishiga sharoit yaratish, turizm ob'ektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, ularning strategik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ushbu yo'nalishda xalqaro loyihalarni amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yuzaga kelyotganligini, buning uchun davlat tomonidan qator imtiyozlar yaratilayotganligini tasdiqladi;

6. O'zbekistonda ziyorat turizmi industriyasini isloh qilishning muhim yo'nalishi marketing sohasidagi ishlarni faollashtirish, turizm bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalaShuvi va raqobatdosh turmahsulotlar ishlab chiqarishi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Ziyorat turizmi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi maxsus internet-portallar tashkil etish respublikamiz turistik imkoniyatlarini targ'ib etish bo'yicha ilmiy ishlanmalar va ilmiy tadqiqotlar qamrovini kengaytirish bo'yicha etarli shart-sharoitlar yaratilganligini ko'rsatdi.

7. O'zbekistonda joylashgan ziyoratgohlarning mamlakat imidjini oshirish, uning iqtisodiy turistlar oqimini oshirish yo'lidagi asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi va iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlaridan biri ekanligi xukumatimiz tomonidan tan olindi va bu yo'nalishda amaliy qadamlar qo'yildi.

**УЧЁНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.12.2019.F.01.05. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ОРЗИҚУЛОВ БАХРОМ ХОЛМУРАДОВИЧ

**СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

09.00.04. – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОСОФСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2021.1.PhD/Fal566.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета (ik-falsafa.nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «Zionet» (www.zionet.uz).

Научный руководитель: **Мусаев Одилжон Рахматович**
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты: **Тилавов Уктам Гуломович**
доктор философских наук
Азамат Мухтаров
доктор философских наук, профессор

Ведущая организация: **Государственный институт искусств и культуры Узбекистана**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 года в _____ часов, на заседании Ученого совета № DSc.03/30.12.2019.F.01.05 по присуждению ученой степени при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г.Ташкент, улица Университетская, дом 4. Здание факультета общественных наук Национального университета Узбекистана, 5 этаж, каб. 511. Тел.: (99871) 227-12-24, факс: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана. (Зарегистрирована под номером___). (Адрес: 100174, г.Ташкент, улица Университетская, 4. Административное здание Национального университета Узбекистана, Тел: (99871) 236-46-55; факс: (99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «___» января 2023 года.
(реестр протокола рассылки № ___ января 2023 года).

И.С.Саифназаров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Г.М.Рузматова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Ж.С.Раматов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность исследования. В современную эпоху глобализации происходящие процессы взаимной интеграции во всём мире дают импульс дальнейшему развитию туристической сферы. Паломнический туризм, наряду с другими направлениями туризма, имеет особое значение и служит развитию духовной и материальной культуры всех народов. Поэтому все страны мира используют все возможности для развития этой отрасли. Паломнический туризм не только помогает народам мира осознать свою национальную идентичность, но и открывает широкий путь для развития культурно-гуманитарных связей между ними. Растущее развитие этой области как важной составляющей духовной культуры создает основу для культурно-духовных отношений между народами.

В научно-исследовательских центрах развитых стран мира ведутся научные исследования в направлениях экономической, инвестиционной, социальной и духовной значимости паломнического туризма, интенсивного развития всех направлений туризма, внедрения современных технологий, а также использование инновационных методов развития паломнического туризма. В частности, на 13-й сессии (1999 год) Генеральной ассамблеи Всемирной туристской организации (ВТО) в городе Сантьяго (Чили) был принят «Кодекс этики мирового туризма» «Путешествия, направленные на религиозные, оздоровительные, образовательные, культурный и языковой обмен» является полезным видом туризма, который следует поощрять. Это наглядный пример практических действий Исламской организации по вопросам образования, науки и культуры (ISESCO)⁷⁰ в организации и продвижении паломнического туризма. Это создает необходимость эффективного использования возможностей паломнического туризма, факторов научного исследования, влияющих на его дальнейшее развитие.

В последние годы в Узбекистане особое внимание уделяется историко-культурным объектам, святым местам, развитию паломнического туризма. Сегодня в Узбекистане насчитывается более 8200 объектов культурного наследия, и для их сохранения принимаются масштабные меры. Это требует интеграции мест паломничества и историко-культурных памятников Узбекистана с туризмом. В частности, реализуемые широкомасштабные реформы создают широкие возможности для более эффективного использования их потенциала. Это в свою очередь позволяет в стране ставить задачи научного исследования данной области социально-духовного с социально-философской точки зрения.

Настоящая диссертация в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-52 от 15 января

⁷⁰ ISESCO шафелиги остида, WTO нинг қўллаб-қувватлаши ҳамда WTO Бош Ассамблеясининг 13-сессиясида (1999 йил) Сантьяго шаҳри (Чили) қабул қилинган «Бутунжаҳон туризм ахлоқ кодекси»нинг «Диний, соғлиқни сақлаш, таълим, маданий ва тиллар алмашинуви мақсадларига қаратилган саёҳат туризмнинг рағбатлантирилиши лозим бўлган фойдали шакллари» тамойили асосида ташкил этилган Бухоро шаҳридаги «Зиёрат туризми бўйича биринчи халқаро форум». Бухоро. 2019 йил 22 февраль. <https://www.trtavaz.com.tr>.

2022 года “О создании дополнительных условий для дальнейшего развития сфер туризма, культуры, культурного наследия и спорта”, УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-6165 от 9 февраля 2021 года «О дальнейшем развитии внутреннего и паломнического туризма» и Постановление Президента Республики Узбекистан от 18 февраля 2022 года “Об организации деятельности Миристерства Туризма и культурного наследия”, Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 февраля 2018 года 120 «Об эффективной организации благоустройства на территориях кладбищах, мечетях, мест паломничества и священных мест» и от 24 февраля 2021 года №100 “О дополнительных мерах по развитию внутреннего и паломнического туризма”⁷¹, а также служит в определенной степени реализации задач, изложенных в других нормативных правовых документах, относящихся к сфере.

Актуальность исследований в приоритетных направлениях развития науки и техники в республике. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. “Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления для социального, правового, экономического, культурного, духовно-образовательного развития информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. Прежде всего, социально-духовные основы развития паломнического туризма в Узбекистане нашли отражение в трудах, выступлениях и докладах первого Президента Узбекистана И.А.Каримова и Президента Ш.М.Мирзиёева.

В диссертации мы сочли необходимым проанализировать источники и литературу, связанные с изучением темы, разделив их на следующие группы:

Первая группа – это источники, отражающие традиции паломничества и представления о святынях в древности;

Ко второй группе относятся литература и источники, описывающие состояние святынь в годы Российской империи и советской власти;

Третья группа – литература, отражающая вопросы паломнического туризма и внимания к святыням в годы независимости;

Четвертая группа изучала отражение проблемы в зарубежной литературе и исследованиях.

Согласно анализу первой группы исследований, в работах отражены сведения о роли посещения святых мест, социально-духовных, духовно-этических характеристиках святых мест и их описание в священной книге ислама «Коране» и «Хадисах», призванные богатой духовной ценностью

⁷¹ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.02.2021 й., 06/21/6165/0104-сон.; (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.02.2021 й., 09/21/100/0169-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.01.2022 й., 06/22/52/0029-сон.; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 19.02.2022 й., 07/22/135/0148-сон. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Янги Ўзбекистон. 2022 йил, 1 февраль, - № 22 (544).

